Iqtisodiyotda yashil innovatsiyalarni joriy etishni konseptual asoslari.....	829
<b>Ruzibayeva Nargiza Hakimovna</b> , kafedra dotsenti	
Цифровизация страховых претензий является основным механизмом развития страховой отрасли.....	835
<b>Узакова Камола Бехзодовна</b> , ассистент кафедры	





# BANK TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA CHAKANA BANK XIZMATLARINING O'RNI

**Raxmatov Temur Sotiboldiyevich**

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Bank ishi va investitsiyalar” kafedrası katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola hozirgi davrda bank tizimida chakana bank xizmatlari rivojlanishi bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish aholi va tadbirkorlik subyektlari, shu jumladan bankning chakana xizmatlaridan (depozit, kredit va to'lov xizmatlari) foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Bugungi kunda moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish uchun “raqamli banking” tamoyillariga asoslangan biznes-modellarini joriy qilish zarurligi o'rganilgan va olingan natijalar asosida xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** bank tizimi, chakana xizmatlar, raqamli bank, bank tizimi, kredit portfeli, foiz stavkasi, mobil banking, mijoz.

## ROLE OF RETAIL BANKING SERVICES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF THE BANKING SECTOR

**Abstract:** The article analyzes the actual problems of the banking system associated with the development of retail banking services. The increasing popularity of financial services means expanding the access of the population and business, including to the bank's retail services (deposit, credit and payment services). To increase the popularity of financial services, one of the main tasks of the banking system today is the introduction of new business models of banks, including those based on the principles of “digital banking”.

**Key words:** retail services, digital banking, banking system, loan portfolio, interest rates, mobile banking, clients.

## РОЛЬ РОЗНИЧНЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА

**Аннотация:** В статье анализируются актуальные проблемы банковской системы, связанные с развитием розничных банковских услуг. Повышение популярности финансовых услуг означает расширение доступа населения и бизнеса, в том числе к розничным услугам банка (депозитные, кредитные и платежные услуги). Для повышения популярности финансовых услуг одной из основных задач банковской системы сегодня является внедрение новых бизнес-моделей банков, в том числе основанных на принципах “цифрового банкинга”.

**Ключевые слова:** розничные услуги, цифровой банкинг, банковская система, кредитный портфель, процентные ставки, мобильный банкинг, клиент.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida bank tizimini rivojlantirish maqsadida mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020–2025-yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi Farmonni imzoladi. Mazkur Farmon quyidagi to'rtta asosiy vazifani hal qilish imkonini beradi, ya'ni: Bank tizimi samaradorligini oshirish; Uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash; Sektorda davlat ulushini kamaytirish; Xizmatlar ko'lami va sifatini yaxshilash <sup>[1]</sup>.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida:

2022-yilda yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023-yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari ko'rilib, keyinchalik inflyatsiya va Davlat byudjeti taqchilligi ushbu ko'rsatkichdan oshmasligi ta'minlab borilishi;

Bunda, davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi ko'zda tutilgan <sup>[2]</sup>.

Mamlakatimizda bank tizimi bugungi kunda bir qancha bank xizmatlari ya'ni – kreditlash, depozit operatsiyalari, plastik karta, hisob-kitob va kassa kabi xizmatlarini ko'rsatuvchi 35 ta tijorat banklardan tashkil topgan <sup>[3]</sup>. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi davrida tijorat banklar davlat ishtirokidagi korxonalarni va davlat rivojlantirish dasturlarini imtiyozli foiz stavkalarida moliyalashtirishga faol jalb etish maqsadida tashkil etildi. Natijada imtiyozli kreditlarning bank tizimi umumiy portfelidagi ulushi 60 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy adabiyotlarda chakana bank xizmatlarini takomillashtirishga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lib, ushbu tadqiqotlar natijasida ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilgan, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bank xizmatlari bozori va uni rivojlantirishning alohida yo'nalishlari xorijlik iqtisodchi olimlardan O. Lavrushin, J. Matuk, K. Baynke, Ye. Jukov, R. Kotter, G. Panova, D. Polfremman, E. Rid, P. Rouz, J. Sinki, N. Sokolinskaya, A. Tavasiyev, V. Usoskinlarning ilmiy ishlarida ham kuzatish mumkin<sup>[3, 4]</sup>. Ssuda kapitali bozoridagi xizmatlar, elektron xizmatlar keng tarqaldi, banklarning birlashish va singib ketish holatlari ko'paydi. Bu borada D. Jentle, J. Sinki, P. Rouz ilmiy ishlarini ta'kidlab o'tish mumkin<sup>[5]</sup>. Ularning fikricha, bank xizmatlari bu-tijorat banklarining tezkor va strategik faoliyati hamda samarali boshqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan harakatlar majmuasi tushuniladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning chakana bank xizmatlari borasidagi dolzarb masalalarga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, chakana bank xizmatlari o'zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, xususan, ushbu xizmat turlarining asosiy iste'molchilari sifatida jismoniy shaxslar rol o'ynaydi, operatsiyalar hajmi kichik bo'lsada, korporativ bank xizmatlariga nisbatan xarajatlar yuqoriroq bo'ladi, xizmatlar shaxsiy talablarni qondirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Respublikamizdagi tijorat banklar tomonidan ko'rsatilayotgan chakana bank xizmatlari hajmi yil sayin ortib bormoqda. Aholiga mo'ljallangan omonatlar soni ortib, plastik kartochkalar bilan operatsiyalar ko'lamini oshmoqda, iste'mol va ipoteka kreditlarini berish amaliyoti hamda xalqaro pul o'tkazmalarining foydalanuvchilari ham keskin ortib bormoqda. Chakana bank xizmatlari turli-tuman bo'lib, ularga valyuta operatsiyalari, muddatli, muddatsiz va jamg'arma depozit sertifikatlari, depozitariylar, iste'mol kreditlari, xalqaro pul o'tkazmalari, plastik karta operatsiyalar brokerlik, konsultativ va boshqa bir qancha xizmatlarni misol keltirish mumkin<sup>[3]</sup>.

Ushbu xizmatlarning barchasi bugungi kunda AQSh, Yevropa mamlakatlari, Yaponiya va bank tizimi rivojlangan boshqa davlatlarda mijozlarga keng ko'lamda taklif etilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasidagi bank tizimi amaliyotida esa, ushbu tarmoq yuqori darajada rivojlanmagan va haligacha mijozlar ehtiyoji to'laigicha qamrab olingani yo'q. Shu maqsadda bank tizimi xizmatlarining hozirgi holati va muammolari o'rganib chiqilib hamda tahlil qilinib shuni ko'rishimiz mumkinki, yirik tijorat banklarining tarmoqdagi zamonaviy talablarga muvofiq transformatsiya jarayonlarida ortda qolishi, korporativ boshqaruv standartlari, axborot texnologiyalari mahsulotlari, aktivlar va passivlarni boshqarish, mijozlar bilan aloqa qilish bo'yicha zamonaviy usullarni amaliyotga joriy qilishda kechikishlarni kuzatish mumkin. Bu esa o'z navbatida bank mijozlariga qator noqulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Bunday chakana bank xizmatlarida uchraydigan muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish uchun chakana xizmatlarga ixtisoslashgan "raqamli" banklar faoliyatini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bir muammoni ham esdan chiqarmaslik lozimki, bu chakana xizmatlarda banklarning asosiy raqobatchilari mobil ilova to'lov tizimlari hisoblanib, dunyo banklarining 86%i bu tahdid juda jiddiy ekanligini va bunda banklar oldida faqat ikki yo'l borligini, birinchisi, Fintech va texnologiya kompaniyalari startaplari bilan hamkorlik qilish, ikkinchisi, Fintech va texnologiya kompaniyalari tovar va xizmatlarini banklar tomonidan ishlab chiqish ekanligini ta'kidlashmoqda.

Shundan xulosa qilish mumkinki, oxirgi paytlarda "faqat raqamli" banklar moliya bozoriga kirib kelmoqda va an'anaviy banklar bilan qattiq raqobatlashmoqda. Bularga Atom Bank (Buyuk Britaniya), Halvi (Shvetsiya) UniCredit (Italiya), Caixabank (Ispaniya), banklarini misol keltirishimiz mumkin. Faqat raqamli banklar ikki turda faoliyat yuritadi: birinchisi, ta'sis etgan bank litsenziyasiga muvofiq asosan bank chakana xizmatlarini ko'rsatadi; ikkinchisi, yangi litsenziya asosida yangi tovar va xizmatlar bilan bozorda alohida yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Har ikki holatda ham xizmatlar raqamli tizimning ustuvor imkoniyat va yutuqlaridan unumli foydalangan holda ko'rsatiladi hamda olingan tajriba va yutuqlarga tayanib kelajakda an'anaviy bank tizimining o'rnini to'liq egallash maqsad qili

O'zbekiston tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlarni boshqarishda quyidagi vazifalarni hal etish muammolari mavjud:

- xalqaro moliya institutlarining mamlakatga kirib kelishi va zamonaviy on-layn bank xizmatlari yuzaga kelishi natijasida tijorat banklarining funksional vazifalarini tubdan o'zgartirish va xalqaro bank xizmatlari bozoriga samarali integratsiyasini ta'minlash;
- mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va ular bilan samarali ishlash usullarini joriy etish va ta'minlash yo'li bilan har bir mijozga individual yondashish bilan standart texnologiyalar uyg'unligiga asoslangan mijozlar bilan ishlashning yangi falsafasini joriy etish;



- bank sohasini diversifikatsiya qilish – banklar tomonidan taqdim etiluvchi xizmatlar turini kengaytirish va mablag'larni qarz olishning (obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish) bankdan tashqari usullarini rivojlantirish;
- zamonaviy texnologiyalar asosida axborot texnologiyalari va aloqa vositalarini rivojlantirish va natijada moliya-kredit tashkilotlari faoliyatining mintaqaviy va milliy sohasini kengaytirish;
- mablag' jalb qilish sohasida ham, kredit xizmatlarini ko'rsatish sohasida ham bank tizimi ichida raqobatni rivojlantirish.
- davlat tomonidan tartibga solish bilan bog'liq bank xizmatlari bozorida narxlar raqobatining cheklanishi, shuningdek, bankning foyda keltirmaydigan yuqori foiz stavkalari mavjudligi;
- menejment tizimini takomillashtirish va bank mahsuloti sifatini nazorat qilish va mahsulotni bozorga olib chiqish bo'yicha samarali milliy marketing siyosatini ishlab chiqish.

Innovatsiyalarning faol va tezkor amalga oshirilishi banklar raqobatbardoshligini oshirish, ularning xalqaro moliyaviy muhitga uyg'un kirib borishiga yordam beradi. Moliyaviy texnologiyalarning bosqichma-bosqich evolyutsiyasi nazariyasiga ko'ra, birinchi bosqich "FinTech 1.0" davrida yetakchi rolni an'anaviy institutlar, asosan mavjud texnologiyalardan foydalangan banklar egallagan bo'lsa, keyingisi "FinTech 2.0" deb nomlangan bo'lib, umumiy foydalanish uchun bankomatni joriy etish texnologiyalari tobora faolroq qo'llanila boshlagan. Elektron bank va raqamlashtirish davrida hisoblangan FinTech 3.0 moliya bozorida innovatsiyalar esa bank xizmatlari ko'rsatuvchi bozor subyektlari doirasidan chiqishgacha olib keldi. Bozor rivojlanishining zamonaviy bosqichini ajratib olishga ehtiyoj tobora ortib borishi prognozlangan, bu esa FinTech 4.0. hisoblanadi. Statistik tahlillarga ko'ra, bank xizmatlari eng rivojlangan mamlakatlar xisoblangan AQSh, Xitoy, Braziliya, Yaponiya va Hindiston singari mamlakatlarda dunyodagi bankomatlarning 50 %dan ortig'i joylashgan bo'lib, on-layn bank tendensiyalari rivojlanishi aynan bankomatlar soniga bog'liq degan xulosaga kelgan.

Banklar tomonidan texnologik yechimlardan foydalanishning ko'p yillik tarixi ularning hozirgi kunda an'anaviy xizmat ko'rsatish sohalari orasida eng yaxshi innovatsiya sifatida tan olinishiga sababdir. Bu ularga yanada rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi. Dunyo bo'ylab bank bozori vakillari yangi texnologiyalarni yaratish va rivojlantirishda faol ishtirok etishlarini ko'rsatuvchi ko'plab amaliy tadqiqotlar buni tasdiqlaydi. So'nggi zamonaviy xizmat turlari sifatida sinergiya samarasini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi raqamlashtirish (ya'ni jarayonlarni avtomatlashtirish), shuningdek, iste'molchilar bilan munosabatlarni raqamlashtirish nuqtai nazaridan ham ko'rinadi. Sun'iy intellekt, blokcheyn va bulutli texnologiyalardan keng foydalanish asosiy innovatsiyalardir. Bunday innovatsiyalar banklar tomonidan amalga oshirilayotgan so'nggi innovatsion tendensiyalardir.

Shuni xam ta'kidlab o'tish joizki, masofadan onlayn va mobil banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni ham ortib bormoqda.

Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish turli bank operatsiyalarni masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya.

Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi.

Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining turlari:

- **Bank-Mijoz** – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.
- **Internet-banking** – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:

- to'lovlarni o'tkazish;
- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;
- barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi.




Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o'z hisobraqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi va pul o'tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo'ladi.

Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:


- hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;
- hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balans;
- kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish.



1-rasm: Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni, (1-yanvar holatiga ko'ra) <sup>[8]</sup>

Yuqoridagi 1-rasmda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 2012-2022-yillar holati o'rganilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2012-yilda 56 735 kishi bo'lgan bo'lsa, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra esa, 356 barobar ko'pni ya'ni, 20 203 384 kishini tashkil qilmoqda.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikro-qarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.




2-rasm: O'zbekistonda muomalaga chiqarilgan bank kartalar soni (ming dona, 1-yanvar holatiga ko'ra) <sup>[8]</sup>

Yuqoridagi 2-rasmda 2010-2021-yillarda tijorat banklari tomonidan plastik kartochkalarni muomalaga chiqarilish holati tahlil qilingan bo'lib, bunda ko'rsak bo'ladiki, 2010-yilning boshida muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni 6 059 ming dona bo'lgan bo'lsa, ularning soni 2022-yilning 1-yanvar holatida esa 27 106 ming donani tashkil qilmoqda.

2021-yilda plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan transaksiyalar hajmi 111 137 mlrd. so'mni tashkil etdi (3- rasm).






3-rasm: O'zbekistonda to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan milliy valyutadagi tranzaksiyalarning summasi (mlrd.so'mda) <sup>[10]</sup>

O'z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni tasarruf etish va to'lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag'lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar yaratildi.

Mamlakatimiz bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari bank xizmatlari bozorida erkin raqobat muhitini ta'minlashga qaratilmoqda va asosiy e'tibor xorijiy bank filiallarini respublikamizda tashkil etishga qaratilmoqda.

Quyidagi 4-rasmda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning turlari bo'yicha 2016-2022-yillar holati o'rganilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2016-yilda 81 500 yuridik shaxslar hamda 979 500 jismoniy shaxslar foydalangan bo'lsa, 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra bu ko'rsatkich 968 600 yuridik shaxs hamda 19 234 800 jismoniy shaxsni tashkil qilmoqda. Bundan xulosa qilsak bo'ladiki, ushbu tizimlardan foydalanish talabi juda ham ortib bormoqda.

Mahalliy tijorat banklari uchun yirik xorijiy kredit tashkilotlarining filiallariga nisbatan raqobatli imkoniyatlar yetarlicha emas. Ayniqsa, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish jarayonlarida bunday kamchiliklar yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra, mahalliy tijorat banklarida mijozlar bilan munosabatlarni samarali boshqarish va mijozlar siyosatini o'zgartirish maqsadga muvofiqligi, xususan, uni umumiy boshqaruv tizimiga kiritish lozimligini belgilab beradi.



4-rasm: Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni (turlari bo'yicha ming.) 1-yanvar holatiga ko'ra <sup>[8]</sup>



Ikkinchi tarafdan, banklarimizda hali foydalanilmagan 60% salohiyat va zaxiralarni tezda o'zlashtirib olish imkoni borligi innovatsion loyihalar va mobil ilovalarni qo'llab-quvvatlash ko'p samara keltirishi mumkinligini bildiradi. Albatta, bu imkoniyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar va targ'ibot-tashviqot ishlari yo'lga qo'yilishi va infrastrukturani rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Bu borada rivojlangan davlatlarda jiddiy tus olgan naqd pulsiz to'lovlar bizga ham kirib keldi va bunga bank tizimi doim tayyor turishi davr talabidir. Misol uchun, Yevropa davlatlarida, xususan Shvetsiya davlatidagi naqd pul aylanishini butunlay muomaladan chiqib ketishi ehtimoli juda yuqori bo'lib, oxirgi 30 yillik minimumga yetgan. 2000-yilda Shvetsiya aholisining 89 % i naqd pul to'lagan bo'lsa, 2019 yilda aholining 25 % i haftada 1 marotaba naqd pul to'lovini amalga oshirgan <sup>[6]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirib o'tilgan ayrim tadqiqot va izlanishlar natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olib, quyidagi takliflar bildiriladi:

1. Har bir bank o'z mijozlari uchun yaratilgan mobil ilovalarni yanada takomillashtirgan holda xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi lozim, dunyo tajribasidan kelib chiqsak, xarajatlarning 2–3% kamayishi mijozlar soniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ma'lum;
2. Chakana bank xizmatlarini mijozlarga taqdim etish jarayonini bir standartga solish va avtomatlashtirish;
3. Zamonaviy "raqamli bank" tizimni joriy etish strategiyasini ishlab chiqish, bunda filiallar tizimini optimalashtirish va avtomatlashtirish;
4. Fintech startaplari va texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlikni yulga qo'yish va kuchaytirish;

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, yuqorida qayd etilgan takliflar bugungi kunda rivojlangan davlatlarda bank hamda mijozlarga maqbul va manfaatli bo'lib, davr talabi, qolaversa, kelajakdagi o'zgarishlarga munosib zamin yaratmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risidagi" PF-5992-son Farmoniga ilova.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – Toshkent, 2022.- 4-b.
3. Лаврушин О.И. Банковское дело: учебник.3-изд./ Под ред. О.И.Лаврушина. – М.: Кнорус, 2005. 766 стр.
4. Тавасиев А.М. Банковское дело: базовые операции для клиентов: Учеб. пособие/ Под. ред. А.М.Тавасиев. – М.: Финансы и статистика, 2005. 302 стр.
5. Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2007. 1018 стр.
6. Bank ishi: Darslik / Sh. Z. Abdullaeva; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2017. 535-b
7. www.nbu.uz – Milliy mobil ilovasi raqamli banking sohasida mobil to'lovlarni amalga oshiradi.
8. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
9. Efma-Infosys Finacle Innovation, "Innovation in retail banking 2019" tadqiqoti, 2019-yil.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”  
jurnali

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro‘yxatdan  
o‘tkazilgan.